

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY  
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari  
to‘plami*  
**(2025-yil 21-22-noyabr)**

**JIZZAX-2025**

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 625-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohaslarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

## KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida hududlar va hatto mintaqalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan bir-biriga integratsiyalashib borayotganligini kuzatib turibmiz. Bu jarayonda jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlash ustuvor omilga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ta‘lim tizimiga yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning tadbiq qilinishi va rivojlantirilishi davr talabidir. Hozirgi davr, ya‘ni “Axborot asri” har sohada axborot texnologiyalarini keng qo‘llash talabini qo‘yar ekan, mazkur yo‘nalishda chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan yosh kadrlarni tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy ta‘lim jarayonini rivojlantirish maqsadida mediata‘lim dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy markazlar tomonidan o‘rganilmoqda. Mediata‘limdan ko‘zlangan maqsad esa yosh avlod mediasavodxonligini shakllantirishdir. Shu boisdan ham nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlashda mediata‘limning imkoniyatlari va raqamli OAV tushunchalarini ilmiy jihatdan yoritish va tadqiq qilish ko‘lamini aniqlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Demak, aytish mumkinki, boshqa sohalar qatori aniq va ijtimoiy fanlar tizimida rejalashtirilayotgan ilmiy tadqiqot maqsadlari, usullari va natijalarini O‘zbekiston mediata‘lim tizimiga tadbiq qilish kelajakda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashda o‘z samarasini beradi. Ayniqsa 2019-2021 yillarda xalqaro Internet axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirish kompleks dasturi tasdiqlanishi e‘tiborga molik. Mazkur dasturda milliy kontent va IT-startaplar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash davlat fondini tashkil qilishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Bu borada zamonaviy innovatsion tadqiqotlar, ularning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari muhim ahamiyatga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu yo‘nalishdagi islohotlar samarasini yaxshilash, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha o‘z yechimini kutayotgan muammolar yuqori salohiyatli ilmiy maktablar o‘rtasidagi muhokamalar, munozaralar va ilmiy ma‘ruzalar jarayonida o‘z yechimini topadi.

Anjumanda ilg‘or fundamental va amaliy tadqiqotlarning natijalari, mamlakatimizning intellektual nufuzini oshirish hamda izlanishlar natijasini tijoratlashtirish masalalari muhokama qilinadi.

Shu bilan birgalikda anjumanning asosiy maqsadlaridan biri, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy ta‘minotlarini yaratishning ilmiy asoslarini takomillashtirish va ularni murakkab tizimlarni boshqarishda hamda ta‘lim va ilmiy tadqiqot jarayonlarida joriy qilishning ilmiy, uslubiy va amaliy takliflarni ishlab chiqish, respublikamizda pedagogik kadrlar tayyorlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash istiqbollari hamda iqtisodiy sohalarida amalga oshirilgan islohotlarni yoritishdan iborat.

Anjumanning asosiy vazifasi, muhokama qilingan dolzarb muammolar va ularning yechimlari asosida O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ishlab chiqarish korxonalarini muammolarini yechishga doir

## OROLBO‘YI MINTAQASIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Ko‘charov Xurshid Xurram o‘g‘li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrası

o‘qituvchisi

e-mail: [xurshid.k@dpi.uz](mailto:xurshid.k@dpi.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xizmatlar sohasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va alohida jihatlari o‘rganilib, mamlakatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlari hajmi va ularning o‘sinh sur‘atlarining o‘zgarish tendentsiyalari tahlil qilingan. Bugungi kunda mamlakatimizda xususan Qoraqalpog‘iston respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasining o‘ziga xos xususiyatlari, unda kichik biznesning o‘rni va ahamiyati muallif tomonidan ochib berilgan. Qolaversa, aynan xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxonalar raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** xizmatlar, xizmatlar sohasi, xizmat ko‘rsatish, xizmat turlari, kichik biznes, raqobat, raqobatbardoshlik.

### **Kirish**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashda hududiy yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ekologik inqiroz hududi sifatida e‘tirof etilgan Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish, aholi bandligini ta‘minlash va yashash sharoitlarini yaxshilash asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Orolbo‘yi hududidagi xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni [1] qabul qilindi. Mazkur Farmonda hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilib, unda hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish, o‘rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta‘lim, tibbiyot, yuridik, san‘at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish, shaharsozlik loyihalari asosida zaruriy infratuzilmasi mavjud va aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarning 233 mingta bo‘sh yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarish orqali savdo, maishiy, sayilgoh va ko‘ngilochar xizmatlarini rivojlantirish, o‘rta va yirik shahar markazlarida xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan markaziy ko‘chalarni tashkil etish orqali 36 mingta savdo va servis ob‘yektlarini tashkil etish, “Yangi O‘zbekiston” massivlarida va xalqaro avtomobil yo‘llari bo‘yida 6 mingta savdo va servis obektlarini qurish, yetakchi loyiha tashkilotlarini jalb qilib, bozorlarni zamonaviy, qulay barcha xavfsizlik talablariga javob beradigan savdo komplekslariga aylantirish kabi qator vazifalar belgilab berildi.

Shundan kelib chiqib, ushbu vazifalarni bajarish xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish va soha korxonalarini samaradorligini oshirish bo‘yicha chuqur hamda keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

### **Xizmat ko‘rsatish sohasining ahamiyati va hozirgi holati**

Ta’kidlash kerakki, xizmat – bu mahsulotning foydali harakati yoki insonning o‘ziga xos, oqilona ehtiyojlarini qondirish uchun faoliyat shaklida namoyon bo‘ladigan, foydalanish qiymatlarini yaratadigan mehnat natijalari bo‘yicha paydo bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlardir. Shuning uchun xizmat ko‘rsatish jarayoni iste‘molchilarga xizmatlarni yetkazib berish jarayoni, ya’ni unga har qanday shakldagi jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirish jarayoni sifatida qaralishi kerak.

Xizmat ko‘rsatish sohasi Orolbo‘yi mintaqasi uchun barqaror iqtisodiy o‘shishning muhim omili hisoblanadi. Xususan, turizm, transport, savdo, axborot texnologiyalari, sog‘liqni saqlash va ta’lim kabi yo‘nalishlar aholiga bevosita xizmat ko‘rsatadi va daromad manbai sifatida xizmat qiladi. 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida xizmatlar sektorining YaIMdagi ulushi 35–38% atrofida bo‘lgan.

Ammo hududda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, malakali ishchi kuchi tanqisligi va marketing strategiyalarining sustligi kabi omillar bu sohaning to‘laqonli raqobatga kirishishini cheklab qo‘ymoqda.

Raqobatbardoshlikni belgilovchi omillar va mavjud muammolar

Xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- Innovatsion yondashuv va xizmat turlarining yangiligi
- Narx va sifat nisbatining maqbulligi
- Hududiy joylashuv va infratuzilmaga yaqinlik
- Mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati
- Brending va reklama strategiyalari

Orolbo‘yi mintaqasida bu omillarning aksariyati bo‘yicha past ko‘rsatkichlar kuzatiladi. Xususan, kichik biznes sub’yektlari innovatsion texnologiyalarga cheklangan darajada ega, marketing bo‘yicha bilimlar yetarli emas, ko‘p hollarda xizmatlar bir xilligi bilan ajralib turadi.

### **Mavzu bo‘yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili.**

Alieva G.I. Raqamli iqtisodiyot tovarlar va xizmatlarni yaratish, ilgari surish va sotish bilan bog‘liq barcha biznes jarayonlarni raqamlashtirishni o‘z ichiga oladi. Raqamli ma’lumotlar ishlab chiqarishning asosiy omiliga aylanib, kompaniyalarning asosiy aktiviga aylanib, barcha iqtisodiy faoliyatda asosiy rol o‘ynaydi. Yaxlit global tarmoqda real vaqt rejimida iqtisodiy tizimlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanishni ta’minlovchi xizmat ko‘rsatish biznesining axborot muhiti alohida ahamiyatga ega. Raqamli infratuzilma raqamli asosda ishlaydigan kompaniyalarning hisoblash, telekommunikatsiya, tarmoq ehtiyojlarini ta’minlaydigan texnologiyalar majmuasini o‘z ichiga olishi. Yangi iqtisodiyotning raqamli infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi eng yangi raqamli texnologiyalarga quyidagilar kiradi: Xizmat ko‘rsatish sohasidagi aloqa xizmatlari, bank xizmatlari,

turizm xizmatlari raqamli texnologiyalarni faol joriy etishga to‘liq yo‘naltirilgan, xizmat ko‘rsatish iqtisodiyotidagi ko‘plab biznes jarayonlar, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi paradigmasiga muvofiq allaqachon qayta qurilgan. Raqamli texnologiyalar eng faol joriy etilayotgan sohalaridan biri bu turizm xizmatlari sigatida ta’kidlagan. Turistik yo‘nalishning jozibadorligini shakllantirish va turistlar oqimini ta’minlash uchun sayohatchi uchun zarur bo‘lgan barcha ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan yaxshi axborot ta’minotini yaratish kerakligi haqida ilmiy izlanishlar olib borgan.

### **Tahlil va natijalar**

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasining jadal rivojlanishi iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvi, aholi bandligining oshishi hamda ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishida muhim omilga aylanmoqda. Ayniqsa, Orolbo‘yi mintaqasida, xususan, Qoraqalpog‘iston respublikasida so‘nggi yillarda ushbu soha bo‘yicha ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ushbu maqolada 2010–2025 yillar davomidagi statistik ma'lumotlarga asoslanib, xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari sonining o‘shish dinamikasi va raqobatbardoshligini oshirishning samarali mexanizmlari tahlil qilinadi.


### **1-jadval**

**Xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari sonining o‘shish dinamikasi  
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi 2010-2025) misolida**

Yil	Subyektlar soni	O‘shish sur‘ati (%)
2010	9300	-
2015	13700	47,3
2020	18600	35,8
2023	21600	16,1
2024	23000	6,5
2025	25000	8,7

### **2-jadval**

**Xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari sonining o‘shish dinamikasi  
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi 2010-2025) misolida.**



1. Xizmat ko‘rsatish sohasi raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omillar  
Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Qoraqolpog‘iston respublikasidagi xizmatlar sektori quyidagi asosiy omillar orqali raqobatbardoshlikka erishmoqda:

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash
- Tahlil va rejalashtirish asosida xizmatlar segmentatsiyasi
- Raqamlashtirish va innovatsiyalar
- Ishchi kuchining malakasini oshirish

2. Raqobatbardoshlikni oshirish mexanizmlari

Xizmat ko‘rsatish subyektlarining bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun quyidagi strategik mexanizmlar tavsiya etiladi:

- Hududiy servis markazlarini tashkil etish
- Raqobat muhitini yaxshilash
- Servis sifati va mijozlar ehtiyojini monitoring qilish tizimini joriy etish
- Ekologik xizmatlar sektorini rivojlantirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri innovatsiyalardir. Innovatsion texnologiyalar yordamida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini chuqur qayta tuzish va ish unumdorligini yanada oshirish mumkin. Ma’lumki, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi nafaqat milliy iqtisodiyotning o‘sish sur‘atlarini jadallashtirishda, balki bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan aholini ish bilan ta’minlash va turmush darajasini oshirish masalalarini hal etishda ham etakchi o‘rin tutmokda. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizning xizmatlar sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 7 725,1 mlrd so‘mni, viloyatning umumiy hajmidagi ulushi 58,2 %ni tashkil etgan.

2022- yilning tegishli davri bilan taqqoslaganda, kichik tadbirkorlikning xizmat ko‘rsatish hajmi 12,3 %ga o‘sgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yuqori ulushi ijara (98,6 foiz), savdo (94,4 foiz), yashash va ovqatlanish (93,1 foiz), transport (90,9 foiz), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (89,2 foiz) yo‘nalishlarida qayd etilgan. Kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlari va iste’molchilar ehtiyojlariga tez moslasha olishi uni jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish va inqirozdan keyin iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish sharoitida yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va makbul vositaga aylantirmoqda.

### **Takliflar va xulosa**

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar xodimlari haqiqatan ham korxonaning raqobatbardoshligining asosiy manbaiga aylanishi uchun inson resurslarini boshqarishning turli usullarini joriy etishda tizimli yondashuvga rioya qilishi zarur. Tashkilotning vazifasi, maqsadlari va strategiyasini hisobga olish, tashqi va ichki muhit omillarining ta’sirini baholash, undan foydalanish va rivojlantirish asosida yuqori raqobatbardoshlikka erishish uchun chora-tadbirlar tizimi va algoritmini shakllantirish zarur. Agar bu shartlar bajarilsa, aynan kadrlar xizmat ko‘rsatish sohasi korxonasiga strategik nuqtai nazardan barqaror raqobatbardosh ustunliklarni yaratib beradi.

Qoraqolpog‘iston respublikasidagi xizmat ko‘rsatish sohasi o‘zining barqaror o‘sish sur‘atlari bilan Orolbo‘yi mintaqasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasidagi subyektlar sonining ortib borishi, innovatsion yondashuvlar va institutsional qo‘llab-quvvatlov tizimi bu sohaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida hududiy ixtisoslashuv, xizmatlar diversifikatsiyasi va raqamli texnologiyalar asosidagi yondashuvlar asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni.
2. XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA YO‘NALISHLARI Berdiyev Anvar Abduraxmonovich Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
3. Ko‘charov X., Ko‘charov E. DAVLAT VA XUSUSIY SEKTORDAGI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA SUN‘IY INTELLEKT TEXNANOLOGIYALARI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14197678> //Journal of International science networks. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 70-74.
4. Eshqobilova N., Ko‘charov X., Hojiakbarova M. SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTI O‘SISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARNING KORRELYATSION VA REGRESSION TAHLILI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13841502> //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 7. – C. 24-31.
5. O‘G K. C. X. X. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT VA XALQARO INTEGRATSIYA //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 13 (50). – C. 25-29.
6. Bo‘takov S., Ko‘arov X. turizmida RAQAMLI IQTISODIYOTNI AHAMIYATI // Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali. – 2022. - Jild 2. – №. 12. 60-62 betlar.
7. Abduvohidov B. Mechanisms and business environment for the development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan //MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT. – 2025. – T. 3. – №. 1.
8. Nasirxodjayeva D., Abduvohidov B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivohlantrishda ishbilarmonlik muhitining moderator roli //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 12.

	<i>o‘g‘li.</i> O‘g‘zaki nutqni rivojlantirish va tinglab tushinish algoritmining xorijiy tilni o‘qitishdagi ahamiyati	
144.	<i>Karimov Shoxrux Ilxom o‘g‘li, Tojiyev F.I.</i> Individual titan implantlarida osteoblast faolligi va suyak regeneratsiyasini baholash	548
145.	<i>I.Z. Abbazov, B.T. Abbazov, Z.R. Tursunov.</i> “STANDART TESTING SIEVE TS-300” laboratoriya uskunasi o‘tkazilgan tajriba tahlili	552
146.	<i>Алиқулова Лайло.</i> ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ МАМЛАКАТ БАҲҚАРОП РИВОЖЛАНИШИНИНГ АСОСИ ВА СТРАТЕГИК ЙЎНАЛИШ СИФАТИДА	557
147.	<i>Vaqqosov Shoxrux.</i> ZAMONAVIY TA’LIM PARADIGMALARI VA ULARNING PEDAGOGIK ASOSLARI	560
148.	<i>Kamolova Sabrina.</i> ISLOM SIVILIZATSIYASINING MARKAZIY OSIYODA RIVOJLANISHI: TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA MADANIY-MA’NAVIY MEROS	563
149.	<i>Bo‘ltakov Sardor.</i> O‘ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ISTIQBOLLARI	565
150.	<i>Narkuziyev Anvar.</i> DAVLAT QARZI VA INFLYATSIYA O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIKNING NAZARIY ASOSLARI	568
151.	<i>Nizametdinov Ali.</i> GERMANIYA AHOLISINING TADBIRKORLIK ORQALI O‘ZINI O‘ZI BAND QILISHNING MUVAFFAQIYATLI TAJRIBASI	574
152.	<i>Rahmatullaev Mirjalol.</i> O‘ZBEKISTONDA MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH SANOATINING SHAKLLANISHI VA IQTISODIY MOHIYATI	580
153.	<i>Kamolova Sabrina.</i> O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	583
154.	<i>Mirzayev Komiljon.</i> QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK INVESTITSIYA XARAJATLARI HISOBINI JORIY ETISH TARTIBI	591
155.	<i>G‘aybullayev Sarvar.</i> CHAKANA SAVDO TARMOQLARIDA CRM TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	598
156.	<i>Tirkashev Ulug‘bek.</i> XIZMATLAR SEKTORIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH	604
157.	<i>Саитов Сирожиддин.</i> АВТОМОБИЛЬ ТРАНСПОРТИ КОРХОНАЛАРИДА АУДИТ ЖАРАЁНЛАРИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	608
158.	<i>Ko‘charov Xurshid.</i> OROLBO‘YI MINTAQASIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI	612